

## VII. ISTE'MOL BOZORI



2022 yilning yanvar-martida chakana savdo tovar aylanmasi 2 428,7 mlrd. soʻmni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 122,0 foizni tashkil qildi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 562,1 mlrd. soʻmni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 23,1 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 30,2 foizni tashkil etib, 733,0 mlrd. soʻmga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 103,2 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 1 133,5 mlrd. soʻm yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga toʻgʻri keldi va oʻsish surʻati 2021 yilning shu davriga nisbatan 104,2 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 46,7 foizga teng boʻldi.



**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da**  
(2022 yil yanvar-mart)



2022 yilning yanvar-martida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari boʻyicha quyidagicha ifodalanadi.


Davlat mulki 2 389,0 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan 2021 yilning shu davriga nisbatan 99,9 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,1 foizni tashkil qildi.

Nodavlat mulki 39,5 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan 2021 yilning shu davriga nisbatan 95,5 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,5 foizni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hisobiga toʻgʻri keldi va 24,3 foizni tashkil etdi, Zomin tumani 12,1 foizni, Sharof Rashidov tumani 13,8 foizni tashkil etgan boʻlsa, Yangiobod tumani 0,9 foiz, Zafarobod tumani 1,3 foiz va Arnasoy tumani 1,8 foiz ulush bilan eng past koʻrsatkichni qayd etdi.



Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



2022 yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	Chakana savdo hajmi, mlrd. so'm	2021 yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida	Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida
<b>Jami</b>	<b>2 428,7</b>	<b>122,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	562,2	288,3	23,1
kichik tadbirkorlik	733,0	103,2	30,2
Yakka tartibdagi tadbirkorlek	728,4	100,0	30,0
Uyushmagan savdo	405,1	113,4	16,7




**2022 yilning yanvar-mart oylarida viloyatning  
chakana tovar aylanmasi**  
(umumiy ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd. so‘m	2021 yil yanvar- martiga nisbatan foiz hisobida	ming so‘m	2021 yil yanvar- martiga nisbatan foiz hisobida
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 428,7</b>	<b>122,0</b>	<b>1 678,4</b>	<b>119,2</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	591,2	108,4	3 151,6	104,5
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	42,7	100,5	901,1	98,8
Baxmal	607,7	228,0	3 717,0	222,7
G‘allaorol	159,3	105,8	887,4	103,4
Sharof Rashidov	335,6	105,2	1 451,6	103,3
Do‘stlik	69,6	107,7	1 011,3	105,8
Zomin	293,0	101,7	1 711,2	99,1
Zarbdor	67,5	103,5	744,8	101,0
Zafarobod	31,7	101,0	612,3	98,8
Mirzacho‘l	54,0	107,8	1 006,8	106,0
Paxtakor	83,2	106,6	1 070,6	104,0
Forish	72,4	104,6	758,4	102,9
Yangiobod	20,8	102,7	715,9	100,9

Viloyatda chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga o‘sish surati yuqori hududlar Baxmal (222,7 %), Mirzacho‘l (106,0 %) va Do‘stlik (105,8 %) tumanlariga to‘g‘ri keladigan.




2022 yil yanvar-mart oylarida, chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, % da)



Viloyatning aksariyat hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Baxmal tumani (228,0%), Sharof Rashidov tumani (105,2%), Zomin tumanida (101,7%), Forish tumanida (104,6%), Jizzax shahri (108,4%), Paxtakor tumanida (100,3%), nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Arnasoy tumanida (100,5%) va Yangiobod tumanida (102,7%) kuzatildi.




**2022 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da**



Hududlar bo'yicha olib qaralganida, kichik tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hududlar Jizzax shahri (530,6 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (335,1 mlrd. so'm), Zomin (270,4 mlrd. so'm), G'allaorol (154,1 mlrd. so'm) va Baxmal (94,6 mlrd. so'm) tumanlari hisoblanadi.




**Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi mlrd. so'm, o'sish sur'ati, % da (2022 yil yanvar-mart)**



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (19,6 mlrd. so'm) hamda Sharof Rashidov (6,9 mlrd. so'm), Зомин тумани (6,9 mlrd so'm) va G'allaorol (2,4 mlrd. so'm) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Yangiobod (0,2 mlrd. so'm), Arnasoy (0,3 mlrd. so'm) va Zafarobod (0,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.



**Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi**  
(mln. so'm) (2022 yil yanvar-mart)



**2022 yilning yanvar-mart oylarida viloyatning ulgurji tovar aylanmasi**

2022 yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo aylanmasi 544,6 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning shu davriga nisbatan 106,0 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi 85,5 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 106,4 foizni tashkil etib, 459,1 mlrd. so'mga yetdi hamda umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 84,3 foizni tashkil qildi.




**Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi**  
(2022 yilning yanvar-mart)

	<i>Hajmi, (mlrd. so‘m)</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2021 yil yanvar-martga nisbatan foizda</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>544,6</b>	<b>100,0</b>	<b>106,0</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	277,9	51,0	94,4
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1,1	0,2	103,3
Baxmal	59,9	11,0	149,8
G‘allaorol	16,2	3,0	108,6
Sharof Rashidov	35,9	6,6	106,3
Do‘stlik	42,6	7,8	165,9
Zomin	59,8	11,0	107,3
Zarbdor	7,5	1,4	106,2
Zafarobod	3,9	0,7	104,4
Mirzacho‘l	1,5	0,3	107,2
Paxtakor	5,7	1,0	109,6
Forish	29,9	5,5	105,3
Yangiobod	2,7	0,5	105,3

Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish surati yuqori bo‘lgan Do‘stlik (165,9 %), Baxmal (149,8 %) va Paxtakor (109,6 %) tumanlariga to‘g‘i keladi.



Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



- Mirzacho'l
- G'allaorol
- Yangiobod
- Zomin
- Baxmal
- Zarbdor
- Do'stlik
- Forish
- Paxtakor
- Zafaraobod
- Arnasoy
- Sharof Rashidov
- Jizzax shahri

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi o'tgan yilga nisbatan 106,0 foizni tashkil etdi, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 84,3 foizni, hajmi esa 459,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (51,4 %) hisoblanadi. Shuningdek, Sharof Rashidov (6,6 %) va Zomin (11,0 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Yangiobod (0,5 %), Arnasoy (0,2 %), Mirzacho'l (0,3 %) hamda Zafarabod (0,7 %) tumanlari esa eng past ulushga ega.

Shundan yuqori xajmlarga ega bo'lgan Jizzax shahrida 277,6 mlrd. so'mni, qolganlari Baxmal 59,9 mlrd. so'mni, Zomin 59,8 mlrd. so'mni, Do'stlik 42,6 mlrd. so'mni hamda Sharof Rashidov 35,9 mlrd. so'mni tumanlarida tashkil qilgan.